UKM

RANCH
UNIVERSITY OF TECHNOLOGY

Urganch Ranch texnologiya universiteti asoschisi Atajonov Atavay Atajonovich tavalludining 75 yillik yubileyiga bag'ishlangan "Hududda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya.
18-19- dekabr, 2024-yil

Международная научно-практическая конференция на тему «Приоритетные направления обеспечения устойчивого экономического роста в регионе», посвященная 75-летию Атажонова Атавая Атажоновича, основателя Ургенчского технологического университета Ранч.
18-19 декабря 2024 г.

International scientific and practical conference titled "Priority areas of ensuring sustainable economic growth in the region" dedicated to the 75th anniversary of Atajonov Atavay Atajonovich, the founder of Urgench Ranch University of Technology.
December 18-19, 2024.

XORAZM VILOYATI

UNIVERSITÀ DEGLI STUDI DI PADOVA

UNIVERSITAT DE BARCELONA

Jihočeská univerzita v Českých Budějovicích
University of South Bohemia in České Budějovice

Universitat de Lleida

	глобальной экономики ……	174
Ergash I., Boronova M.	Jahon iqtisodiyotida turizm sanoatining ahamiyati …….	181
Satimova M.D.	O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar va ularning natijalari ……	184
Karimova M.	Mintaqada kichik biznes strategik zonalarida ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘nalishlari	187
Karimova Sh.A.	Hududlarni kompleks rivojlantirish strategiyalarini mohiyati …	191
Nusratullayev B.B.	Kichik biznes uchun huquqiy va tartibga solish muammolarini hal qilish ……..	195
Djumayeva G.A.	Xalqaro standartlarga muvofiq moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot va buxgalteriya balansi o‘rtasidagi farqlar ……..	198
Embergenov A.J.	Mintaqaning iqtisodiy salohiyatidan foydalanishning xorijiy tajriybasi	201
Djumayeva G.A.	Hisob siyosatida ijara bilan bo‘g‘liq operatsiyalarni aks ettirilishi ……..	204
Tokhirjonov J.G‘.	Uzbekistan's recent reforms: advancing sustainable growth and regional integration …….	207
Uralova D.O.	Ta’lim muassasalarini raqamlashtirish asosida samaradorligini oshirish istiqbollari …….	210
Ярматов Ш.Ч.	Барқарор ривожланиш мақсадларида минтақада яшил иқтисодиётга ўтиш концепцияси	214
Алламуратова П.М.	Қорқалпоғистонда қишлоқ аҳолиси бандлигини таъминлашнинг асосий йўналишлари ва хусусиятлари	217
Ибадуллаев Э. Анахон Х.	Минтақада туризм хизматларини ривожлантиришда халқаро тажрибалардан фойдаланишнинг зарурлиги	219
Каримов Ж. Қ.	Рақамлаштириш шароитида олий таълим тизимини ривожлантириш орқали камбағалликни қисқартишга таъсирини баҳолаш ……..	223
Кудайбергенов А.Ш.	Роль корпоративных информационных систем в условиях устойчивого экономического роста: проблемы, тенденции и перспективы развития ……..	228
Ахмеджанов А.	Проблемы повышения достоверности учетной и отчетной информации ……..	232
Музаффарова К.З., Эркинова Р., Амиров Э.	Рақамли иқтисодиётни шакллантириш орқали тадбиркорликни ривожлантириш имкониятлари ……..	234
Санакулов Б.Б.	Электронный документооборот в управлении: опыт бухарского государственного университета ……..	238
Ханнаев Ш.Қ.	Инвестицияларнинг ҳудудлар иқтисодий ўсишига таъсири мавжудми?	241
Акбаров Ҳ.М.	Барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашда хуфиёна иқтисодиётнинг олдини олиш йўллари	259
Саминов Э.	Жамиятда дерадикализациялашув жараёнларини асосий омиллари ……	262

2- SHO‘BA: MINTAQANI KOMPLEKS IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI

Атажанов Ж.А.	Қишлоқ хўжалик техникалари ишлаб чиқарувчи бизнес субъектларининг кооперация алоқаларининг ўзига хос хусусиятлари ва имкониятлари	266
Салаев С.К., Таджиев Б.У.	Янги Ўзбекистонда кичик ва ўрта бизнесни қўллаб-қувватлаш ва рағбатлантириш механизми	271
Sauxanov J.K.,	Barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash va qishloq xo‘jaligi	

- Transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish orqali O‘zbekiston Respublikasining geografik joylashuvi mintaqaviy savdoni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratishi va transport tarmoqlarini takomillashtirish, temir yo‘l va avtomobil yo‘llari infratuzilmasini modernizatsiya qilish, shuningdek, transchegaraviy logistika markazlarini yaratish zarur deb hisoblaymiz.
- Yashil iqtisodiyotga o‘tish orqali O‘zbekiston Respublikasi qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirishi, chiqindilarni qayta ishlashi, energiya samaradorligini oshirishi va ekologik zararlarni kamaytirishi uchun innovatsion texnologiyalarni joriy etishi lozim deb hisoblaymiz.

Xulosa

O‘zbekistonning rivojlanish modelining takomillashtirilishi uchun yuqorida keltirilgan strategiyalarni amalga oshirish zarur. Mamlakatning iqtisodiy o‘sishini davom ettirish, yangi tarmoqlarni rivojlantirish, eksportni diversifikatsiya qilish va barqaror ijtimoiy rivojlanishni ta’minlash uchun integratsiyalashgan va kompleks yondashuv kerak. Bu islohotlar mamlakatni uzoq muddatli iqtisodiy o‘sish, raqobatbardoshlikni oshirish va xalqaro miqyosda muvaffaqiyatli integratsiya qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мырзанов Б.Ж, Таджиев Т.М ОЦЕНКА ТЕРРИТОРИАЛЬНО-СТРУКТУРНОГО ПОТЕНЦИАЛА ПРОМЫШЛЕННОСТИ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН // Экономика и финансы (Узбекистан). 2022. №9 (157).

2. Embergenov A. J. et al. MINTAQA IQTISODIY SALOHIYATIDA IQTISODIY GEOGRAFIYA TUSHUNCHASI VA O‘RNI //Innovative Development in Educational Activities. – 2023. – Т. 2. – №. 12. – С. 133-136.

HISOB SIYOSATIDA IJARA BILAN BO‘G‘LIQ OPERATSIYALARNI AKS ETTIRILISHI

Djumayeva Guzal Axtamovna
SamISI, assistent

Annotatsiya: Ushbu maqolada korxonalarning hisob siyosati va unda ijara bilan bog‘liq munosabatlarni aks ettirilishi, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida yoritib berilishi bo‘yicha nazariy va amaliy takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: Hisob siyosati, BHMS, MHXS, ijara, foydalanish huquqidagi aktivlar, ijara shartnomasi, ijarachi.

Аннотация: В данной статье даются теоретические и практические предложения по учетной политике предприятий и отражению в ней отношений связанных с арендой, на основе международных стандартов финансовой отчетности.

Ключевые слова: Учетная политика, НСБУ, МСФО, аренда, активы с правом пользования, договор аренды, арендатор.

Annotation: This article provides theoretical and practical proposals on the accounting policies of enterprises and the reflection of relations related to leasing, based on international financial reporting standards.

Keywords: Accounting policy, NAS, IFRS, lease, assets with the right to use, lease agreement, lessee.

Buxgalteriya hisobining xalqaro amaliyot bilan integratsiyalashuvi jarayonida axborot foydalanuvchilarini o‘z vaqtida ishonchli haqqoniy ma’lumotlarga bo‘lgan talabini yanada oshirmoqda. Axborot foydalanuvchilari buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi ma’lumotlarini xo‘jalik yurituvchi sub’yektlarning moliyaviy hisobotlari va unga tushuntirish, ilovalari orqali oladilar.

Moliyaviy hisobot korxonaning moliyaviy holatini, moliyaviy natijalarini va pul mablag‘lari harakatini haqqoniy taqdim etishi lozim. Haqqoniy taqdim etish operatsiyalarning, boshqa hodisalarning, aktivlar, majburiyatlar, daromadlar va xarajatlarning ta’riflari hamda tan olish mezonlariga muvofiq ro‘yi-rost taqdim etishni talab etadi. Zarur bo‘lganda qo‘shimcha ma’lumotlarni yoritib berish bilan birga MHXSlarni qo‘llash moliyaviy hisobotni haqqoniy taqdim etilishini ta’minlaydi. Moliyaviy hisobotlardagi axborotlarning ishonchliligi, haqqoniyligini ta’minlashda hisob siyosatining ahamiyati beqiyos hisoblanadi.

8-son “Hisob siyosati, hisob baholaridagi o‘zgarishlar va xatolar” BHXSga asosan hisob siyosati – tashkilot tomonidan moliyaviy hisobotni tayyorlashda va taqdim etishda qo‘llaniladigan muayyan tamoyillar, asoslar, umum qabul qilingan shartlar, qoidalar va amaliy yondashuvlardir.

Buxgalteriya hisobini yuritish usullariga uni guruhlarga ajratish metodlari va xo‘jalik faoliyati faktlarini baholash, aktivlar qiymatini to‘lash, hujjatlar aylanmasini, inventarizatsiyani tashkil etish usullari, buxgalteriya hisobi schotlarini qo‘llash usullari, hisob registrlari tizimi, axborotlarni qayta ishlash va boshqa tegishli usullar, uslublar va metodlar kiradi.

1-sonli “Hisob siyosati va moliyaviy hisobot” BHMS ga asosan hisob siyosati deganda xo‘jalik yurituvchi subyektning rahbari buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobot tuzish uchun qo‘llaydigan usullari, ularning prinsip va asoslari bilan birgalikdagi jamlamasi tushuniladi.

Shunday ekan, xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar moliyaviy hisobotlarida ijara va u bilan bog‘liq operatsiyalarni haqqoniy aks ettirishlari lozim. 1-sonli BHMS “Hisob siyosati va moliyaviy hisobot”ga asosan hisob siyosatida quyidagi axborotlarni yoritib berishi lozim: foydani aks ettirish, konsolidatsiyalash prinsiplari, faoliyat turlarini uyg‘unlashtirish, birgalikdagi faoliyat, moddiy va nomoddiy aktivlarning aks etishi va eskirishi (amortizatsiyasi), jalb etilgan mablag‘lar qiymatining kapitalizatsiya qilinishi va boshqa xarajatlar, kapital quyilmalar, investitsiya mulki, moliyaviy instrumentlar va investitsiyalar, **ijara,** tadqiqot va taraqqiyot bilan bog‘liq xarajatlar, tovar-moddiy zaxiralar, soliqlar, jumladan kechiktirilgan soliqlar, zaxiralar, xodimlarni saqlab turish, xorijiy valyutani o‘tkazish, faoliyat turlarini, jug‘rofiy segmentlarni va xarajatlarni segmentlar o‘rtasida taqsimlash usulini belgilash, inflyatsiyani hisobga olish, hukumat subsidiyalari.

Hisob siyosatini shakllantirishda korxonalar yuqoridagilar bilan cheklanib qolmaydi, balki ahamiyatli bo‘lgan barcha axborotlarni aks ettirishga ruxsat etiladi.

Ijara bilan bog‘liq axborotlar hisob siyosatida aks ettirilishi ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, xalqaro buxgalteriya hisobi standart talabi bo‘yicha korxonalarning hisob siyosatiga kiritilishi kerak bo‘lgan ijara hisobining tarkibiy elementlarini tahlil qilishni taqazo etadi. Korxonalar hisob siyosatida ijara bilan bog‘liq munosabatlarni

aks ettirishda ijara shartnomalarining nafaqat huquqiy shaklini, balki iqtisodiy ahamiyatini xalqaro standartlar asosida hisobga olishlari lozim.

Xalqaro standartlarga muvofiq ijara operatsiyalarini hisob siyosatida yoritib berilishida quyidagilarni hisobga olishni tavsiya etamiz:

-Ijara shartnomasida ijara komponentlari aniq ko‘rsatilishi va ularning identifikatsiyalanishini belgilash;

-Foydalanish huquqi ko‘rinishidagi aktivlar va moliyaviy ijara (lizing)ga olingan asosiy vositalarni alohida guruhlash hamda operatsiyalarini hisobga olish uchun foydalanishni rejalashtirgan schotlarni ko‘rsatish;

-Foydalanish huquqiga ega bo‘lgan aktiv uchun buxgalteriya hisobi registrlarida amortizatsiya qachon hisoblanishi;

-Foydalanish huquqi shaklidagi aktivlar uchun o‘rtacha foydalanish muddati (yillarda) ko‘rsatilishi;

-Foydalanish huquqi ko‘rinishidagi aktivlarning baholanishini.

-Ijara shartnomasiga muvofiq belgilanadigan kelajakdagi lizing to‘lovlarining joriy qiymati uchun diskont stavkasini aniqlashi, algoritmining tavsifini ko‘rsatishi;

-Ijara shartnomalarini uzaytirish imkoniyati belgilangan bo‘lsa, korxona ijaraga berish muddatini belgilashda qanday taxminlardan foydalanishini ko‘rsatishi (lizing shartnomalarini uzaytirish va bekor qilish variantlarini iqtisodiy manfaatlar nuqtai nazaridan tahlil qilishni tavsiya qilinadi)

- Ijarachi tomonidan ijara shartlariga muvofiq tayanch aktivni demontaj yoki siljitishiga qilingan xarajatlar hisobi.

Shunday qilib, hisob siyosatining puxta, batafsil ishlab chiqilishi buxgalteriya (moliyaviy) hisobotlaridan foydalanuvchilarni iqtisodiy ishonchli axborotlar bilan ta’minlaydi va oqilona qarorlar qabul qilinishiga olib keladi. Hisob siyosatini shakllantirishda ijara bitimlari, turli bo‘limlar tomonidan tuziladigan shartnomalar shaklga nisbatan mazmunning ustuvorligini hamda korxonalar biznes jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonuni. 2016 yil 13 aprel, № O‘RQ-404. https://lex.uz/acts/2931253

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» Qarori. 2020 yil 24 fevral. PQ-4611-son.

3. 16-son “Ijara” MHXS

4. 8-son “Hisob siyosati, hisob baholaridagi o‘zgarishlar va xatolar” BHXS

5. 1-sonli “Hisob siyosati va moliyaviy hisobot” BHMS

6. S.N. Tashnazarov. Moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish Monografiya. 2018 y. “O‘zbekiston” 2018 yil, - 119 b

https://lex.uz/ru/docs/-85259

https://lex.uz/acts/-112328